

**YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA KOMIL INSONNI
SHAKLLANTIRISH VA MA'NAVIY SALOHİYATNI
OSHIRISH YO'LLARI**

Axmadova Zilola Iskandar qizi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar: Komillik, barkamollik, tasavvuf, ideallik, shaxs kamoloti, umumbashariy qadriyatlar, sarkardalik, oila ma'naviyati.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan milliy qadriyatlarning nazariy asosini tashkil etuvchi komil inson g'oyasini qayta takomillashtirishga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Chunki mamlakatimiz taraqqiyoti fuqorolarimizning ma'naviy intellektual salohiyatining qanchalik yuqoriligigga bog'liq. Komil inson g'oyasi hamma vaqt ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib ayniqsa bugungi globallashuv global jamiyatda ustuvorlashib bormoqda. Inson, jamiyat va davlat konsepsiyasi mohiyatida bu yaqqol namoyon bo'lib turibdi. Biz o'z ishimizda avvalo shu masalalarga e'tibor qaratamiz va mavzuimiz doirasida ilmiy asoslarda yoritib beramiz.

ANNOTATION

Key words: perfection, mysticism, idealism, personality maturation, universal values.

From the first years of independence of Uzbekistan, there has been a growing focus on redefining the idea of the perfect man, which is the theoretical basis of national values. Because the development of our country depends on the high level of spiritual and intellectual potential of our citizens. The idea of a perfect man has always been relevant, especially in today's globalized world. This is evident in the essence of the concept of man, society and the state. We focus on these issues in our work and cover them on a scientific basis.

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова: совершенство, мистика, идеализм, совершенство, универсальные ценности

С первых лет независимости Узбекистана все большее внимание уделяется переосмыслению представления о совершенном человеке, являющемся теоретической основой национальных ценностей. Поскольку развитие нашей страны зависит от высокого уровня духовного и интеллектуального потенциала наших граждан, представление о совершенном человеке всегда было актуальным, особенно в современном глобализированном мире. Это проявляется в сущности понятия человека, общества и государства, именно этим вопросам мы уделяем внимание в своей работе и освещаем их на научной основе.

Komil insonni tarbiyalashda oiladagi ma'naviy muhit

Komil insonni tarbiyalash ajdodlarimizning azaliy orzusi bo'lib, farzandlar tarbiyasi ushbu nazariya asosida kechgan. Tarbiya nazariyasi tarixiga ko'ra, eng maqbul yo'l bolaning tug'ilganidan boshlab to mustaqil hayot yo'liga qadam qo'yganiga qadar asosiy tarbiya jarayonlari oilada kechadi. Oila inson dunyoga keladigan, tarbiyalanadigan va odatda o'zining butun hayotini o'tkazadigan makon hisoblanadi. Chunki oila nafaqat ma'naviy ozuqa beruvchi institut, shuning bilan birga, insonni har qanday sharoitda qo'llab-quvvatlaydigan, fuqarolik ma'suliyatini shakllantiradigan ilk boshlang'ich tashkilotdir. Oila qadim-qadimdan ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, milliy udumlar, urf odatlar va an'analar shakllangan maskan bo'lib, uning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Oila munosabatlari jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan. Jamiyat rivojlanib borgan sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Jamiyat, xalq, millatning istiqboli ko'p jihatdan oilaviy munosabatlarning holatiga bog'liq. Har qanday millatning ma'naviyatini shakllanishida hech shubhasiz oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibat, hurmat, halollik, mehnatsevarlik, ahillik, fikriy birdamlik, odoblilik, ahloqiy poklik, inoqlik, totuvlik, bilimga, kasb-hunarga intilish, o'z sha'nini asrash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, qonunga to'g'ri kelmaydigan har qanday nopok ishlardan saqlanish kabi insoniylik fazilatlari aynan oila muhitida shakllanadi. "Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi"¹.

Jamiyatning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri bo'lgan sog'lom avlodni tarbiyalash, oilaning faoliyati bilan chambar-chas bog'liqdir. Jismonan sog'lom, ma'nan kuchli va aqlan yetuk avlodni kamol toptirish – oilaning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan biridir. Oilaning ma'naviyati, uning ahloqiy fazilatlariga bolalikda oilada asos solinadi, keyin bu tushunchalar tarbiya va ma'rifat tizimida rivojlanadi va to'liq shakllanadi. "Odamzod uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofdagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi avvalo uning tug'ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi"².

Oilaning tarbiya muhiti sifatidagi xususiyati, uning o'ziga xosligi va tamoyilan muhimligi, undagi munosabatlarning bevositaligi va mustahkamligini umumiy muhitning uyg'unligida ekanligi bilan shartlanadi. Faqat oilada farzandlar kattalardan

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: 2008. –B.52-53.

² Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: 2008. –B.53.

malaka, bilimlarini o'zlashtiradilar, kattalar esa o'z hayotlarida bosib o'tgan yo'llarini farzandlari orqali qayta barpo etadilar. Oilaviy muhit o'ziga xos bo'lib, uning har bir a'zosi yangi avlod, mustahkam va barqaror sog'lom oilani barpo etishga ma'suldir. Shuning uchun biz yoshlarimizni o'zlarini moddiy jihatdan ta'minlay oladigan, bilimli, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'sha oladigan, komil qilib tarbiyalash o'zbek oilalarining asosiy maqsadini tashkil qiladi. O'zbek oilasining o'z qiyofasi, milliy xususiyati, milliy axloqi, didi alohida ajralib turadi. O'zbek oilasining tarixiy an'analari, urf-odatlar, udumi, rasm-rusmlari, ahloq meyorlari, turmush-tarzi, ma'naviy qadriyatlari, shaxslararo munosabatlari va xususiyatlari g'arb xalqlari oilasidan tubdan farq qilib, andishalik, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, mehmondo'stlik, saxiylik, to'g'ri so'zlik kabi fazilatlari farzandlar tarbiyasiga doimiy singdirib boriladi va go'daklik chog'idayoq alohida e'tibor ko'rsatiladi. "Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg'ubor ongi bamisoli bosma qog'oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o'ziga shimib-singdirib oladi. uning ota-onasiga, bobo va momolariga mehri va hurmati, o'zini o'rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga takomillashib boradi"³.

O'zbek oilalari o'z ichiga totuv yashash, poklik, intizomlik, samimiylik, haqqoniylik, insonparvarlik, yaxshilik, mehribonlik, mehnatsevarlik, ozodalik, tejamkorlik, kamtarlik, bunyodkorlik, kabi ahloqiy hislatlarni qamrab oladi. shundan kelib chiqib xalqimizning "Yaxshi odam farzandini yomon bo'ldi deb kuyinma, yomon odam farzandini yaxshi bo'ldi deb suyinma", "Qariysan, qartasan, asli naslingga tortasan", "Qush uyasida ko'rganini qiladi", - degan maqollar zamirida oiladagi tarbiyaga bog'liq bo'lgan sermazmun falsafiy mushohada aks etgani ham bejiz emas. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida, - "...Bu haqda gapirganda, men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asaridagi qaxramonlarning o'zaro muomala va muloqatlari, ularning hatto kichik farzandlarini ham "siz"lab gapirishi misolida ota-bobolarmizning oila ma'naviyatiga qanchalik katta e'tibor berganiga ishonch hosil qilaman"⁴, - deb ta'kidlaydi. Insondagi yetuklik va komillik hislatlarining ilk bosqichi avvalo, oila bag'rida vujudga keladi va oila muhitida shakllanadi.

Ahloq va odobli bo'lish ota-onalarga kattalarga hurmat, samimiylik, inoqlik, qadr-qimmat, vijdoniylik, iffatlilik, o'zaro yordam kabi insoniy xislatlar o'zbek oilasining ramzi sanaladi. Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, - "...Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va

³ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. . –T.: 2008. –B.53-54.

⁴ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. . –T.: 2008. –B.55.

yuksalishida, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy me'zon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir"⁵. Mana shu o'rinda tarbiyaning muhimligi yaqqol namoyon bo'ladi, bunaqa fazilatlarni sindirish jarayonida ulg'aygan har qanday yosh komillikni aks ettiruvchi xilqatlarga ega bo'ladi. Natijada millat, xalq, davlat ravnaqi uchun bor kuch g'ayratini ishga soladi. Mehnatni ulug'lab, qadriga yetib faoliyat yuritadi. O'zining kuchiga, ilmiga, matonatiga ishonib yashaydi. Ota-onasiga, aka-ukalari, opa-singillari, qarindosh-urug'i, yoru-birolarlari, xalqiga mehr-muhabbatli, oqibatli, vafodor bo'lib yashaydi. Bu hislatlar birgina insonni o'zida aks etishi emas, balki uning farzandlari, uka-singillari, qarindosh-urug'i, yaqinlari, qo'ni-qo'shnilar, mahalladoshlari, shogirdlariga namuna bo'lib o'tishini ta'minlashi zarur bo'ladi. Har qanday ijobiy fazilatlar boshqalar tarbiyasiga xizmat qilmasa natijakorligi sezilmaydi. Rivoyat qilishicha, sahobalar Muhammad (sallollohu alayhi vasallam) payg'ambardan musulmonning eng yaxshisi qanday bo'ladi?, deganlarida – musulmonning eng yaxshisi, tili, qo'li, qilg'i bilan boshqalarga ozor bermaydigani, yaxshi hulqi ila boshqalarga o'rnak bo'ladigani, degan ekanlar. Diniy va dunyoviy ta'limotlarda shaxsning o'rnak bo'ladigan fazilatlari tarannum etilishi kerak, toki boshqalar undan bahramand bo'lsin. Boshqalarga fazilatlari singib ketsin. Shundagina jamiyatning ravnaqi ahillik va mehr-muhabbat, go'zallik, adolat asosida yo'naltiriladi. Avvalo bu fazilatlar bolaning go'dakligidan uning ongi-shuuriga singib boradi. Oilaning farzand tarbiyasidagi asosiy ta'siri ma'naviyatli, komil ota va onaning mavjudligidadir. Komil insonni tarbiyalashda oilaning muhimligi hammamizga ma'lum. Biroq ota-onaning ilmiy va tarbiyaviy salohiyati, ularning tashqi muhitga ta'siri esa undanda muhimdir. Solih ota-ona oilada ham ko'cha-kuyda ham o'rnak bo'lishi zarur. Chunki ota-onaning asl yo'nalishi, faoliyatini eng birinchi farzand sezadi. Ota-ona uyda ham kucha-kuyda ham harakati na'muna kasb etish etmasligi bolaning ongiga singib boradi. Ota-onasidagi xislatlar asta-sekinlik bilan bolaga o'tib boradi. Farzandning komillik sari intilishi kuchayadi, oiladan o'rnak ola boshlaydi.

O'zbekistonda huquqiy demokratik jamiyat qurishda fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri bo'lgan oilaning roli beqiyosdir. Jamiyat boshqaruvini modernizatsiyalashda oila o'ziga xos milliy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlar bilan alohida ahamiyatga ega. Ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar shakllanishi ma'lum bir ijtimoiy, milliy-madaniy makon oilada kechadi. Shuning uchun ushbu makonda qaror topgan tarixiy-madaniy va ahloqiy-ma'naviy an'analarga tayanibgina u o'zida

⁵ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: 2008. –B.52-56.

o'zligini namoyon qila oladi. Ahloq, odob, ezgulik niyati bilan yashash, hamkorlik va hamdardlik, jamoa bo'lib bir-birini qo'llab-quvvatlash, zo'ravonlikni qoralash, nochor, kam ta'minlangan ijtimoiy zaif va yordamga muhtoj kishilarga homiylik qilish, murosa qilish yo'llarini izlash, birovning mulkiga xiyonat qilmaslik, Vatani va xalqiga muhabbat, sadoqatli bo'lish kabi ijtimoiy-ma'naviy fazilatlar o'zbek xalqining ota-bobolarmizdan o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari bo'lib, bugungi demokratik jarayonlarni shakllantirish hamda fuqarolik jamiyatini yanada takomillashtirishning asosiy negizi bo'lib xizmat qilmoqda.

Azal-azaldan oila jamiyatning bus-butunligini ta'minlaydigan, odob-ahloq, mehr-oqibat, ma'rifat va ziyo maskanining ilk o'chog'i vazifasini o'tab kelgan. Agar biz O'zbekiston tarixini jahon sivilizatsiyasi o'chog'i bo'lgan davlatlar bilan solishtirsak, xorijiy davlatlar tarixiy manbalarida insoniy huquqlar poymol qilinganligi, qulchilik o'ta kuchli rivojlanib, qul bo'lgan insonlarga hayvonlarcha munosabatda bo'linganligi, qullarning oilasi, bola-chaqalari, uy-joylari bo'lmaganligini guvohi bo'lamiz. Bizda esa aksincha, qullarning aksariyat qismini oilasi, bola-chaqalari, uy-joylari mavjud bo'lgan. Chunki buning asosiy sabablaridan biri oiladagi mehr-oqibat, tarbiyaning jadal shakllanganligi, oila, mahalla, qarindosh-urug'lar munosabatidagi uzviy aloqalarni mustahkam o'rnatilganligining ifodasidir. Qadimdan xalqlarimiz bir-birlarini xolidan doimo xabardor bo'lib, yordam berishib, hasharlar uyushtirib turganlari sabab xalqimiz kambag'alchilik va qaramlikdan ancha holi bo'lgan. Bundan tashqari yoshlarga oila va jamoat joylarida odob-ahloq qoidalari sha'riy qonunlar, hamda an'anaviylik asosida keng ta'lim berish ishlari olib borilib, unga barcha qattiq amal qilgan. Shu sababli ham o'g'irlik talonchilik, qonunbuzarliklar juda kam uchraganligi xatto, uylarda, bozor do'konlari eshiklarida qulflar osilmaganligi tarixiy manbalardan ma'lum. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, insonlarda bunday go'zal fazilatlarni, yetuklik va komillikni shakllanishida oilaning o'rni va roli beqiyosdir. Chunki, bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan dono maqoli, o'ylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi", - deb qayd etadi⁶.

Mustaqillikni dastlabki yillaridayoq mamlakatimizda oila va uning huquqiy asoslariga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi. Dunyo mamlakatlari Konstitutsiyasidan farqli o'laroq, Davlatimiz Konstitutsiyasida "Oila" to'g'risida alohida bobning kiritilishi, "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"⁷, - deb belgilanganligi oilaning huquqiy negizini mustahkamlaydi.

⁶ Karimov I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". . –T.: 2008. –B.53.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-modda. T, 2001 y.

O'zbekiston aholisining soni 36 milliondan oshdi. 17 milliondan ortig'ini ayollar mayollar tashkil etadi⁸. Umumiy oilalar soni 8,5 milliondan ortdi. Shu sababli, "ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmi, ma'rifatli va salohiyatli qilish", degan qoidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi. Bu borada bugun O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi – ayollarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir⁹. Ana shu ustuvor yo'nalishlarni samarali amalga oshirish maqsadida 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida quyidagi dolzarb vazifalarni bajarish zarur deb belgilandi:

birinchidan, xotin-qizlarning qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

ikkinchidan, xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini yanada oshirish;

uchinchidan, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash;

to'rtinchidan, ehtiyojmand xotin-qizlarga manzilli yordam ko'rsatish bo'yicha ro'yxatlarni tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy ko'mak berishning samarali usul va vositalaridan keng foydalanish;

beshinchidan, barcha hududlarda xotin-qizlarning bandligini to'la-to'kis ta'minlash imkonini oshiradigan maxsus tizim yaratish va uning samarali ishlashini yo'lga qo'yish;

oltinchidan, xotin-qizlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarning oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilik bilan shug'ullanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

yettinchidan, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish;

sakkizinchidan, jazoni ijro etuvchi muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

to'qqizinchidan, xotin-qizlar bilan bog'liq muammolarni yechishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash borasida ishlarni tizimli tarzda olib borish¹⁰.

Mamlakatimiz tomonidan olib borilayotgan ayollarga alohida e'tibor shunchaki emas. Oilaning asosiy tarbiyaviy muvozanatini tutib turuvchi vakil bu ayol. Ona

⁸ Qarang: Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2022. –B.246.

⁹ O'sha asar. –B.247.

¹⁰ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2022. –B.245-246.

bolaning tug'ilganidan boshlab komillik fazilatlarini o'z allasi va pokiza suti bilan tarbiyalaydigan zotdir. Onaning fazilati bolaning tarbiyasidagi boshlang'iya nuqtadir. O'ngi endigina ildiz otayotgan go'dak ushbu fazilatlar bilan yo'g'rilib katta bo'ladi. Shu sababli ham ayolni oilaga tarbiyalash mustahkam tarbiya negizi bo'lib xizmat qiladi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Ayol baxtli bo'lsa, jamiyat baxlidir"¹¹.

Umuman olganda, oila jamiyatning negizi sifatida uning taraqqiyotiga katta ta'sir etadi. Shunga ko'ra oilaning qarashlari, qiziqishlari, maishiy hayoti, oila a'zolari dunyoqarashining darajasi o'z navbatida jamiyatning taraqqiyot darajasini ko'rsatadi. Oilalarning ahvoli, ijtimoiy tuzilishi, hozirgi zamondagi qiyofasi mavjud davr bilan aloqadorlikda o'rganilgandagina yorqin namoyon bo'lishining sababi oila hamma davrda ham jamiyatdagi ijtimoiy, ma'naviy-ahloqiy muhitni o'zida yaqqol aks ettirganligi, ijtimoiy rivojlanish yo'lida paydo bo'lgan ijtimoiy muammo va qiyinchiliklarni hal etish muhim o'rin tutishidir. Bir so'z bilan aytganda, oila – o'tmishni, bugungi va kelajakni aks ettiruvchi asosiy maskandir. O'zbekiston xalqlari oilasida inson shaxsining kamolati uchun ma'nan tarbiyaviy barkamollik negiz vazifasini o'taydi. Ota-bobolarimizdan meros qolgan saxiylik, mehmondo'stlik, rosgo'ylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik, odoblilik fazilatlarini milliy mintalitetimizning muhim jihati hisoblanadi. Ushbu xislatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlod ongiga yanada shakllantirish, ular ruhiyatini xalq durdonalari bilan boyitish, milliy qadriyatlarga e'tiborni ko'proq qaratish maqsadga muvofiqdir.

Paragraf xulosalariga ko'ra, komil insonni tarbiyalashda oilaning o'rni beqiyos. Oilaning zamonaviy muhitdan kelib chiqib, qadriyatlarimiz yo'g'rilgan tarbiya usullaridan voz kechmagan holda shakllantirish davr talabidir. Shunga ko'ra: birinchi, oilada bola tarbiyasiga alohi e'tibor qaratish va zamonaviy shart-sharoitlarni yaratish; ikkinchi, er va xotin munosabatlarini umumbashariy va milliy qadriyatlardan kelib chiqib tizimlashtirish; uchinchi, Oilada teng huquqlikni ta'minlash va ayolning mavqeini mustahkamlash; to'rtinchi, farzandlar tarbiyasiga milliylik va umummilliylik asosida yondashish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2018, 52 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 apreldagi F-5465-son "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoyishi.
4. Borev Y. Estetika: Uchebnik. –Moskava: Visshaya shkola, 2002. – 511 s.
5. Gumelyov L. Drevniye tyurki. –Moskva: Ayriss-press, 2016. – 560 s.
6. A.Guseynov. Filosofiya – misl i postupok: Stati, dokladi, leksii, intervyu. SPb.: SPbGUP, 2012. –848 s.

¹¹ O'sha asar. –B.244.